

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING OZARBAYJON
RESPUBLIKASIGA DAVLAT
TASHRIFI GA DOIR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan
22-23-avgust kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Tashrif dasturida oliy darajadagi muzokaralar hamda ikki mamlakat yetakchilari ishtirokidagi boshqa tadbirlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Kun tartibidan O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini yanada

mustahkamlash va ustuvor yo‘nalishlardagi amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan. Muzokaralar yakunida ikki tomonlama bitimlar qabul qilinishi rejalashtirilgan

O‘ZA



BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON — OZARBAYJON:

IKKI QARDOSH XALQ FAROVONLIGI
YO‘LIDAGI MUSTAHKAM SHERIKLIK

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV
22-23-AVGUST KUNLARI DAVLAT TASHRIFI BILAN
OZARBAYJONDA BO‘LADI

Ozarbayjon 1991-yil 28-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini tan oldi, 1995-yil 2-oktabrda mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida tarixan shakllangan yaqin do‘stona munosabatlar o‘z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi

bosqichiga ko‘tarilgan. Oliy darajadagi muntazam va samarali muloqot tufayli O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi strategik sheriklik hamda ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari barcha yo‘nalishlarda jadal ravnaq topmoqda.

Davomi 2-betda



MUNOSABAT

TADBIRKORLIK DAVRI



Mamlakatimizda tadbirkorlar zamoni keldi, desam ortiqcha mubolag‘aga yo‘ymang. Chunki hozir dehqonchilikdan tortib ishlab chiqarishgacha, sanoat zanjirini yaratishdan to yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishgacha — barida xususiy tadbirkorlar, kichik va o‘rta biznes vakillarini uchratish mumkin. Ularning aksariyati yaqin 6-7 yilda tadbirkorligini boshlab, xalqimiz orasidan chiqayotgan yangi O‘zbekiston ishbiarmonlaridir.



Ular keyingi yillarda soha vakillariga yaratilayotgan qator yengilliklar, erkinliklardan kuch olib, iqtisodiyotimiz loqomotiviga aylanib bormoqda. Yetti yil oldin boshlangan amaliy ishlar samarasi yurtimizda ishbiarmonlik muhiti taraqqiy etib borayotgani, yangi-yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilgani,

aholining salmoqli qismi shu sohada mehnat qilayotganida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Islahotlar ayni shu og‘riqli nuqtadan boshlangani bejiz emas. Chunki ilgari bir tadbirkor ish boshlasa, faoliyatiga aralashib, huda-behuda tekshiruv bilan to‘siq qo‘yadiganlardan ko‘pi

bo‘lmasdi. Mahsulot ishlab chiqarish, bozor topish, yangi ish o‘rni yaratish — barchasi katta mashaqqat, bu yoqda tadbirkorga yordam berish o‘rniga uning ishiga xalaqit qilishlar, albatta, rivojlanish yo‘lidagi to‘siq edi.

Davomi 3-betda



YANGICHA YONDASHUVLAR

MILLIY TAYANCH
TAMOYILLAR

4



INSON QADRI UCHUN

CHEKKA QISHLOQDAGI
SAYYOR QABUL

4



OLIIY TA‘LIM

FARZANDLARIMNI
O‘QITOLMAGANDIM

5



TAQDIMOT

“YANGI MO‘YNOQ”
KITOBINI BIR VARAQLANG...

6



XORIIY EKSPERTLAR FIKRI

STRATEGIK SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH
UCHUN KENG IMKONIYAT

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 19-20-avgust kunlari Vengriyaga amaliy tashrifi xalqaro ekspertlar diqqat markazida bo‘ldi.

Van XAN,
“Chen Kun” biznes maktabi
loyiha rahbari (Xitoy):

— Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston keyingi yillarda barcha davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy

hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Buning sharofati bilan Yevropa yo‘nalishidagi hamkorlikda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilayapti.

Davomi 2-betda



ILM-FAN TARAQQIYOTI

“TO‘P VAQTI”DAN 15 MING
TONNALI RADIOANTENNAGACHA

O‘zbekiston astronomiyasining
o‘tmishi, buguni va istiqboli

Bu yil yurtimizdagi eng nufuzli ilmiy muassasa — Fanlar akademiyasi tashkil etilganining 80 yilligi keng nishonlanmoqda. Tarkibiga qirqdan ziyod yirik ilmiy tekshirish institutini jo qilgan akademiya Ikkinchi jahon urushining qizg‘in pallasida — 1943-yilda mamlakatimizdagi bir necha ilmiy tadqiqot tashkiloti asosida tashkil etilgan. Ular orasida Toshkent astronomiya observatoriyasi ham bo‘lgan.

Davomi 4-betda



BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON — OZARBAYJON:

IKKI QARDOSH XALQ FAROVONLIGI YO‘LIDAGI MUSTAHKAM SHERIKLIK

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV 22-23-AVGUST KUNLARI DAVLAT TASHRIFI BILAN OZARBAYJONDA BO‘LADI



Boshlanishi 1-betda

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning 2022-yil 21-22-iyun kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim voqea bo‘ldi, chunki unda ikki davlat o‘rtasida Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilindi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlari 2022-yil sentabr oyida Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) Davlat rahbarlari kengashining yig‘ilishi doirasida Samarqand shahrida ham uchrashdilar, unda raislik qilayotgan mamlakatning faxriy mehmoni sifatida Prezident Ilhom Aliyev ishtirok etdi.

O‘sha yili 10-11-noyabr kunlari Prezident Ilhom Aliyev rafiqasi, birinchi vitse-prezident Mehribon Aliyeva bilan birgalikda Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishida ishtirok etish uchun Samarqand shahriga tashrif buyurdi.

Joriy yil 1-2-mart kunlari bo‘lib o‘tgan Qo‘shilmalik harakati sammitidagi ishtiroki doirasida ikki mamlakat Prezidentlari Bokuda uchrashdilar.

2017-yildan buyon oliy darajadagi muloqotning faollashuvi delegatsiyalar almashuvi jadallashishiga ko‘maklashmoqda. 6 yil davomida tomonlarning 70 dan ortiq yuqori darajadagi tashrif almashuvi bo‘lib o‘tdi.

Parlamentlararo hamkorlik ham faol rivojlanmoqda. 2020-yili ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari — O‘zbekiston Oliy Majlisi va Ozarbayjon Milliy Majlisida parlamentlararo hamkorlik guruhlari tuzildi. 2022-yilda ikki mamlakat parlamentlari palatalarining raislari va spikerlarining o‘zaro tashriflari bo‘lib o‘tdi, tashriflar davomida ular O‘zbekiston Prezidenti va Ozarbayjon Prezidenti tomonidan ham qabul qilindi.

Parlamentlar vakillari O‘zbekiston va Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan Prezident va parlament saylovlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik turli tadbirlarda muntazam ravishda ishtirok etib kelmoqda.

2016-yil sentyabr oyidan buyon ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari rahbarlari darajasida yettita uchrashuv o‘tkazildi.

2022-yil 1-avgust kuni Toshkentda O‘zbekiston, Ozarbayjon va Turkiya tashqi ishlar, iqtisodiyot va transport vazirlarining birinchi uch tomonlama yig‘ilishi tashkil etildi, uning yakunlari bo‘yicha Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tash-

kiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, MDH va Qo‘shilmalik harakati doirasida yaqindan hamkorlik qilayotgani barobarida bir-birining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlamogda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon BMTning xalqaro kun tartibidagi asosiy masalalar, jumladan, xavfsizlikka zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish, yadro qurolini tarqatmaslik rejimini mustahkamlash, inson huquqlari himoyasi, Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha o‘xshash nuqtayi nazarlarga ega.

Ozarbayjon O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda hamkorlikni mustahkamlash (2018), diniy bag‘rikenlik (2018), sayyohlikni rivojlantirish (2019), Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e‘lon qilish (2021), Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash (2022), Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish (2022) bo‘yicha qabul qilingan rezolyutsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va hammuallif bo‘ldi.

Shuningdek, Ozarbayjon Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasi 25-sessiyasi 2023-yilda Samarqand shahri o‘tkazilishi uchun uning nomzodini qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekiston va Ozarbayjon boshqa davlatlar bilan birgalikda UNEKO Reprzentativ ro‘yxatiga to‘rtta ko‘p millatli fayini — Navro‘z (2016), Miniatyura san‘ati (2020), Ipakchilik va to‘qish uchun an‘anaviy ipak ishlab chiqarish, Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an‘analarni (2022) kiritdi.

Mamlakatlarning o‘rtasidagi savdo aloqalari erkin savdo rejimida amalga oshirilmoqda. 1998-yilda tuzilgan Hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiya savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi tovar aylanmasi 2016-yildan buyon 6 barobar oshdi, 2022-yil yakunlari bo‘yicha 180 million dollardan ziyodni tashkil etdi. Joriy yildam ham savdo aylanmasi o‘shishda davom etdi — 2023-yilning 7 oyi davomida bu ko‘rsatkich 144 million dollarga yetdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Ozarbayjon kapitali ishtirokidagi 203 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning asosiy faoliyat yo‘nalishlari savdo, mashinasozlik, metallga ishlov berish, moliya va sug‘urta, ko‘chmas mulk, energetika, xizmatlar, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, oziq-ovqat va yengil sanoatni qamrab olgan.

2020-yili tashkil etilgan O‘zbekiston — Ozarbayjon ishbiarmonlar kengashi muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani holda muntazam ravishda turli yig‘ilishlar o‘tkazmoqda.

Joriy yil fevral oyida O‘zbekiston va Ozarbayjon ustav kapitali 500 million dollarni tashkil etadigan investitsiya jamg‘armasini tuzdi. Jamg‘arma mablag‘lari qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

2021-yildan buyon ikki mamlakat tadbirkorlari kooperatsiya aloqalari va sarmoyaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida tashkil etilgan biznes forumlar va ko‘rgazmalar doirasida bir necha marotaba uchrashdi. Ularning yakunlari bo‘yicha o‘n millionlab AQSH dollariga teng shartnomalar imzolandi.

Transport sohasi O‘zbekiston va Ozarbayjonning iqtisodiy ravnaqi uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘z salohiyatlarini teran anglagan holda Markaziy Osiyo va Kavkazning markaziy xabiga aylanish uchun milliy va mintaqaviy darajadagi sa‘y-harakatlarni hayotga tatbiq etmoqda.

Bunday sharoitda mamlakatlarningiz ushbu ikki mintaqani bog‘laydigan transport yo‘laklarini rivojlantirishga intilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘zaro yuk tashish hajmini ko‘paytiradi va nafaqat ikki mamlakat, balki butun mintaga miqyosida tranzit salohiyatini oshiradi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi mintaqalararo hamkorlik ham sezilarli darajada faollashdi. Hozirgi kunda Bokudan Toshkent, Samarqand, Urganch va Farg‘ona shaharlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri havo qatnovlari amalga oshirilmoqda. Mintaqaviy delegatsiyalarning o‘zaro tashriflari muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. Joriy yil fevral oyida Toshkentda O‘zbekiston — Ozarbayjon mintaqalarining birinchi forumi bo‘lib o‘tdi. Samarqand va Ganja, Xiva va Shusha, Buxoro va Lankaron, Qo‘qon va Sheki shaharlari o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar imzolandi.

Mamlakatlarning o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev bilan Toshkentda bo‘lib o‘tgan uchrashuv chog‘ida O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlarini birlashtiruvchi asosiy qadriyat — bu madaniyatdir“, deya ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, ikki mamlakat o‘rtasidagi madaniy va ma’naviy aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga ega. O‘zaro aloqalar asrlar davomida rivojlana borib, g‘oyaviylik va mohiyat nuqtayi nazaridan bir-biriga hamohang, shakl

va mazmun jihatidan uyg‘unlik kasb etgan. O‘zbek va ozarbayjon xalqlarining atoqli namoyandalari jahon madaniyati, ilm-fani va adabiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan. Ikki xalq adabiyotining buyuk namoyandalari — Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy nomlari va bebaho merosi O‘zbekiston va Ozarbayjonda behad e‘zozlanadi, avaylab asraladi va chuqur o‘rganiladi. Ikki davlat poytaxtlarida Alisher Navoiy (Boku) va Nizomiy Ganjaviy (Toshkent) haykallari o‘rnatilgan.

Umuman, har ikki mamlakatda o‘tkaziladigan turli madaniy va boshqa tadbirlarda ishtirok etadigan, shu jumladan, yuqori darajadagi delegatsiyalarning o‘zaro almashuvlari muntazamlik kasb etgan. Bular musiqa festivallari, o‘zbek va ozar xalqlarining buyuk ajdodlari ijodi va merosiga bag‘ishlangan ilmiy aylanmalar, kino va madaniyat kunlari, ko‘rgazmalar va boshqalardir.

Ana shunday tadbirlardan biri yaqinda, avgust oyi boshida Bokuda katta muvaffaqiyat bilan o‘tkazilgan O‘zbekiston madaniyati kunlari bo‘ldi. Dasturdan O‘zbekiston va Ozarbayjonning mashhur san’atkorlari ishtirokidagi katta konsert, teatr tomoshalari va boshqa tadbirlar joy oldi, ular Ozarbayjon jamoatchiligi tomonidan cheksiz iliqlik va samimiyat bilan qarshilandi.

Joriy yil aprel-may oylarida mamlakatimizda O‘zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan Ozarbayjonning umummilliy yetakchisi Haydar Aliyevning 100 yilligiga bag‘ishlangan qator madaniy-ma’rifiy tadbirlar bo‘lib o‘tdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ozar millatiga mansub yurtdoshlarimiz ham xalqlarimiz o‘rtasidagi qardoshlik aloqalarini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda. O‘z madaniyati va an‘analarni avaylab asrash, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenlikni mustahkamlash, dinlararo muloqotni kengaytirish, ta’lim va yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda ularga 2003-yili tuzilgan Ozarbayjon Madaniy markazlari uyushmasi, shuningdek, Ozarbayjon madaniyati markazi yaqindan ko‘maklashmoqda.

Bugun komil ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekiston va Ozarbayjonning qardoshlik aloqalari kun sayin mustahkamlanib bormoqda. Bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlar xalqlarimiz farovonligi yo‘lida ikki mamlakat hamkorligini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘lib qoladi.

“Dunyo” AA



XORIJY EKSPERTLAR FIKRI

STRATEGIK SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN KENG IMKONIYAT



Yoanna MARSHALEK-KAVA,
Nikolay Kopernik universitetining Siyosiy tashkilotlar kafedrası mudiri, professor (Polsha):

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga tashrifi har ikki davlat uchun ham ahamiyatli va foydali voqeadir. Albatta, bu, birinchi navbatda, munosabatlarning iqtisodiy tarkibiy qismini rivojlantirish va chuqurlashtirish nuqtayi nazaridan muhim tashrif bo‘ldi. Import, eksport, sarmoya, kapital harakati, yangi ishlab chiqarishlarning ochilishi, texnologiyalar almashinuvi — qisqsa va o‘rta muddatli istiqbol-da ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil etadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida xususiy sektorning samarali faoliyat yuritishi ularning iqtisodiy o‘shishi va farovonligini ta’minlab, kambag‘allikni qisqartirishga yordam beradi. Vengriyada samarali, daromadli va barqaror korxonalar qurish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan bo‘lib, O‘zbekiston tomonidan ushbu tajribaning joriy etilishi mamlakat iqtisodiyotini barqaror

Boshlanishi 1-betda

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida iqtisodiyotni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli O‘zbekiston Vengriya uchun jozibador bozorga aylanayotir. Jumladan, Toshkentda Vengriyaning OTR banki ish boshladi. Vengriyaning “Bonafarm“, “Gedeon Richter“, “Meditop“, “Wizz Air“ kabi qator yirik kompaniyalari O‘zbekistonda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

Ushbu omillarning barchasi samarali hamkorlikni yanada mustahkamlash va O‘zbekiston bilan Vengriya o‘rtasidagi strategik sheriklikni yangi amaliy mazmun bilan to‘ldirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilaypti.



Soleyman XIVECHI,
Eronning “Ala Tejarat Mahad Qabous” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi:

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston bilan Vengriya o‘rtasidagi munosabatlar ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama jadal kelmaydi, strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilayotganining guvohi bo‘lyapmiz.

Shu kungacha o‘tkazilgan ikki tomonlama sammitlar yakunlari O‘zbekiston — Vengriya hamkorligini yanada rivojlantirish, rasmiy Toshkent va Budapesht o‘rtasidagi keng siyosiy muloqot hamda jamoatchilik bilan aloqalarni chuqurlashtirishni ta’minladi.

Bundan tashqari, ikki mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni izchil o‘sb bormoqda, buning yaqqol ko‘rsatkichi so‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmining 3 barobar ortganidir.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston va Vengriya ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish uchun yuqori imkoniyat va salohiyatga ega.

Bu borada O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqining “GSP+” imtiyozlar tizimiga kiritilishi ikki davlat uchun yangi imkoniyatlar va yaxshi istiqbolalar ochdi.

Shu bilan birga, ularni moliyalashtirish bo‘yicha qo‘shma jamg‘armaning tashkil etilgani muhim sarmoyaviy loyihalarini birgalikda amalga oshirish masalasiga tomonlarning qiziqishi yuqori ekanidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zaro munosabatlarning erishilgan darajasida to‘xtamasdan, ko‘p qirrali O‘zbekiston — Vengriya hamkorligini yanada kengaytirish uchun hali foydalanilmagan ulkan salohiyatni samarali ishga solish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarishda davom etmoqda.

So‘nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining o‘zaro tashrif va muzokaralari qizg‘in amalga oshirilayotgani, natijada ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikka oid ko‘plab ikki tomonlama hujjatlar imzolangan buning yaqqol dalildir.

Ishonch bilan ayta olamanki, kelgusida biz O‘zbekiston — Vengriya o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik hajmi bir necha barobar ortishiga guvoh bo‘lamiz.



Soleyman XIVECHI,
Eronning “Ala Tejarat Mahad Qabous” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi:

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston bilan Vengriya o‘rtasidagi munosabatlar ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama jadal kelmaydi, strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilayotganining guvohi bo‘lyapmiz.

Shu kungacha o‘tkazilgan ikki tomonlama sammitlar yakunlari O‘zbekiston — Vengriya hamkorligini yanada rivojlantirish, rasmiy Toshkent va Budapesht o‘rtasidagi keng siyosiy muloqot hamda jamoatchilik bilan aloqalarni chuqurlashtirishni ta’minladi.

Bundan tashqari, ikki mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni izchil o‘sb bormoqda, buning yaqqol ko‘rsatkichi so‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmining 3 barobar ortganidir.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston va Vengriya ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish uchun yuqori imkoniyat va salohiyatga ega.

Bu borada O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqining “GSP+” imtiyozlar tizimiga kiritilishi ikki davlat uchun yangi imkoniyatlar va yaxshi istiqbolalar ochdi.

Shu bilan birga, ularni moliyalashtirish bo‘yicha qo‘shma jamg‘armaning tashkil etilgani muhim sarmoyaviy loyihalarini birgalikda amalga oshirish masalasiga tomonlarning qiziqishi yuqori ekanidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zaro munosabatlarning erishilgan darajasida to‘xtamasdan, ko‘p qirrali O‘zbekiston — Vengriya hamkorligini yanada kengaytirish uchun hali foydalanilmagan ulkan salohiyatni samarali ishga solish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarishda davom etmoqda.

So‘nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining o‘zaro tashrif va muzokaralari qizg‘in amalga oshirilayotgani, natijada ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikka oid ko‘plab ikki tomonlama hujjatlar imzolangan buning yaqqol dalildir.

Ishonch bilan ayta olamanki, kelgusida biz O‘zbekiston — Vengriya o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik hajmi bir necha barobar ortishiga guvoh bo‘lamiz.

“Dunyo” AA

O‘ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOIIY FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH “NURONIY” JAMG‘ARMASI FAOLLARINING O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATI



Boshlanishi 1-betda

Nega deganda, oramizda daraxtlarni shafqatsizlarcha kesib, pullayotgan kimsalar borligi yaxshi ayon. O‘zi umrida bitta ham nihol ekmasdan, daraxtlarga bolta urayotgan, daraxt kesishni kasbga aylantirib olgan soxta tadbirkorlar, ma’naviy qashshoq kimsalarga qarshi hammamiz birgalikda kurashaylik!

Mamlakatimizning ayrim joylarida “Yashil makon” loyihasiga befarqlik bilan qaralayotgani oqibatida katta mablag‘, moddiy va mehnat resurslari hisobiga ekilgan ko‘chatlar qurib qolayotgan, daraxtzorlar payhon qilinayotgan holatlar ham, afsuski, tez-tez uchramoqda.

Aziz nuroniyilar, dono otaxon va oqila onaxonlar!

Bu borada avvalambor siz, azizlarga murojaat qilayotganimiz, albatta, bejiz emas. Yangi O‘zbekistonimizda tarixiy o‘zgarish va islohotlar, ezgu g‘oya va tashabbuslarni ro‘yobga chiqarish jarayonida sizlar hamisha faol bo‘lib, qimmatli fikr va mulohazangiz, dono maslahatingiz, amaliy harakatlaringiz bilan munosib hissa qo‘shib kelmoqdasiz. Boy hayotiy tajribangiz, duo va tilaklaringiz hamisha xalqimiz uchun katta tayanch va suyanch bo‘lib keladi.

Bugungi kunda ona tabiatga munosabat, “Yashil makon” loyihasidan ko‘zlangan maqsad-muddao haqida xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida suhbatlar qurib, uning mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlarida faol, farzand va nabiralarimiz uchun qulay tabiiy muhit yaratishda bosh-qosh bo‘lish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Ota-bobolarimizdan meros an‘ana — oilada yangi farzand dunyoga kelganida unga atab, albatta, daraxt ekishni qayta tiklab, hayotimiz qoidasiga aylantirsa, ayni muddao bo‘ladi. Nikohdan o‘tayotgan yoshlarimiz mana shunday baxtli onlardan esdalik sifatida yaxshi niyat bilan yerga nihol eksi, an‘analimiz yana bir g‘ozal odat bilan boyigan bo‘lar edi. Kelin-kuyovlarimiz ekanan nihollarning ildizi yerga chuqur o‘rmashib, ulg‘ayib, ulkan daraxtga aylanib meva berganidek, yoshlarimizning oilasi ham, albatta, mustahkam, barakali, tinch-totuv bo‘ladi.

Piru badavlat otaxon-onaxonlar, faxriylar, ziyolilar va azmu shijoatli yoshlarimiz



Bugungi kunda ona tabiatga munosabat, “Yashil makon” loyihasidan ko‘zlangan maqsad-muddao haqida xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida suhbatlar qurib, uning mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlarida faol, farzand va nabiralarimiz uchun qulay tabiiy muhit yaratishda bosh-qosh bo‘lish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.



birgalikda mahallalardagi bo‘sh yerlar, dala chetlari, ariq va zovurlar bo‘ylariga terak ko‘chatlari va qalamchalari ekishni tashkillashtiraylik!

Bir tup niholdan 8 tadan 12 tagacha qalamcha olish mumkin. Bu qalamchalarni sifatli ekib, parvarishlasak, kuzgacha har biri ko‘chatga aylanadi. Oddiy qalamchadan ko‘chat va yog‘och yetishtirish toza havo, yaxshigina daromad manbai ekanini unutmaylik!

“Bir nuroniy — o‘n nafar yoshga mas‘ul”, “Ustoz va shogird” tamoyillari asosida farzand va nabiralarimiz, mahallalar yoshlarini yonimizga olib, hovilar, ko‘p qavatli uylar, shifoxonalar, ishlab chiqarish korxonalari, ta’lim-tarbiya muassasalari atrofiga daraxt va gullar ekishni yo‘lga qo‘yish muhim vazifamiz hisoblanadi.

“Nuroniy” jamg‘armasi bu borada Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Sog‘liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirliklari hamda boshqa tegishli idoralar, davlat va jamoat tashkilotlarini hamkorlikka chaqiradi.

Aziz ota-onalar!

Xalqimizda **“Qush uyasida ko‘rganini qiladi”**, degan gap bejiz aytilmagan. Chinakam insoniy tuyg‘ular, avvalo, oila bag‘rida kamol topadi. Farzandlarimiz qalbid ro‘yubidek ulg‘aysin! Xalqimiz aytganidek, har birimizdan yaxshi bog‘ qolsin!

Bu ezgu ishlarimizda Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lsin!

Bobosi va otasi bilan birga daraxt ekanan, parvarish qilishda ishtirok etgan bolaning ongu tafakkuri o‘zgacha bo‘ladi. Ona yurtga mehr va sadoqat ruhida kamol topadi. O‘zi ekanan nihol unib-o‘sayotganini ko‘rgan bolaning qalbidagi orzu-maqsadlari ham yuksak bo‘ladi. Shuning uchun daraxt ekayotganda, nihollarni parvarishlayotganda farzandlarimizni yonimizga olib, ularga tuproq bilan tillashishni, nihol ekib, undirishni o‘rgataylik! Parvarishlagan niholi Vatanimiz ko‘rkiga-ko‘rk qo‘shishini anglataylik!

Muhtaram mahalla faollari!

Bugungi kunda ham ayrim mahallalarda, ko‘cha va guzarlarda qarovsiz yotgan yerlar, qurib-qovjirab qolgan daraxtlarni ko‘ramiz. Bu bizga umuman yarashmaydigan holat. Mahallalarimiz qiyofasi faoliyatimiz natijasini ko‘rsatadigan omillardan biri ekanini unutishga haqqimiz yo‘q.

Shu bois, bu yo‘nalishdagi faoliyatimizni tanqidiy ko‘rib chiqib, ishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish choralarni ko‘rishimiz lozim. Mahallalarimiz hududini obod qilish, ziyoratqoh va qabristonlarni obodonlashtirish kabi savobli ishlar hamisha e‘tiborimiz markazida turishi zarur.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Obod xonadon” dasturini amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatib, yurtimizda har jihatdan obod xonadonlarni ko‘paytirish, ularni boshqalarga o‘mak qilib ko‘rsatish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirishimiz lozim.

Hurmatli usta bog‘bon va mirishkor fermerlar!

Bozor va dasturxonlarimiz to‘kinligi sizlarning zahmatli mehnatingiz natijasidir. Ona tabiatimizni asrash, yurtimizda mevali va manzarali bog‘lar, yashil hududlarni kengaytirishda siz, azizlarning bilim va tajribangiz nihoyatda muhimdir.

Shunday ekan, dala chetlariga tut va uzum ko‘chatlarini ekish tajribasini keng ommalashtiraylik. Tutzorlar yerni eroziyadan, ekinlarni turli tabiiy ofatlardan himoya qilish bilan birga ipakchilik sanoati rivojining bosh omilidir. Uzum va uning mayizi dasturxonlarimiz ko‘rki va eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Tut va uzum mo‘l hosil va katta daromad manbai. Shunday ekan, dala chetlariga tut va uzum ko‘chatlari to‘liq ekilishiga erishaylik!

Aziz yoshlar!

Jonajon O‘zbekistonimiz, uning yer osti va yer usti boyliklari, o‘simlik dunyosi, yashil o‘rmon va bog‘lari



MUNOSABAT

TADBIRKORLIK DAVRI



Aktram HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikeri o‘rinbosari,
O‘zLiDeP fraksiyasi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, 2016-yildan boshlab mamlakatimizda tadbirkorlarga munosabat tubdan o‘zgardi. Davlatimiz rahbarining 2016-yil 5 oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni esa ushbu sohada yangi bosqich, yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Zero, hujjat bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadani tashqari, shuningdek, ularni jinoyat ishlari doirasida muqobil tekshirishlarning barcha turi bekor qilindi.

Bu boradagi qat’iy qadamlar biri biriga ulandi. Soha rivojiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniyl manfaatlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sohani rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. O‘tgan yillar davomida biznes yuritishga doir 100 dan ortiq litsenziya va

ruksatnoma bekor qililib, 33 ta faoliyat turi xabardor qilish tartibiga o‘tkazildi. Ruksatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtirilib, muddatlari qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xomashyo bo‘yicha ko‘plab cheklovlariga barham berildi. Natijada ichki va tashqi bozorda o‘z nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi.

Odamlarimiz orasida tadbirkorlikka qiziqish ortdi. Barcha tarmoqlarda tadbirkorlik muhiti shakllanib, kichik va o‘rta biznes hayotimizga jadal kirib keldi. Ayni chog‘da mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o‘rinlarining asosiy qismi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani xususiy biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiyl hayotimizdagi o‘rni ham oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Kutilgan tashabbuslar

Tadbirkorlik — qariyb barcha sohalar lokomotivi, degan gapda hech bir mubolag‘a yo‘q. Aholini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, zamonaviyl xizmatlar ko‘rsatish, yangi ish o‘rinlari yaratish masalalarida asosiy rol o‘ynayotgan ishbilarmonlik rivojlansa, albatta, boshqa sohalar ham gullab-yashnaydi. Bu haqiqatni rivojlangan mamlakatlar tajribasi tasdiqlayapti.

Keyingi yillarda yurtimiz aholisi o‘rtasida va davlat idoralarida tadbirkorlarga munosabat o‘zgardi. Jamiyatda ularning obro‘yi, mavqei kun sayin ortib boryapti. Chunki mulk va mulkdorlar, xususiy sektor vakillarining huquq va manfaatlari qonun yo‘li bilan himoya qilinishi yanada mukammallashdi. Ana shulardan kelib chiqib, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy mulkni qamrov” qonunlari qabul qilindi. Tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviyl yordam rejimlari joriyl qilindi.

Bu sa‘y-harakatlar natijasida mazkur tumanlardagi tadbirkorlar o‘tgan olti oyda qariyb 1 trillion so‘mlik imtiyozlardan foydalangan. Buning hisobidan 20 ta tumandagi tadbirkorlarning daromadi



e’tibor timsolidir. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu dunyoda muqobili yo‘q noyob amaliyot bo‘ldi.

O‘tgan yili tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda ishbilarmon doira vakillari tomonidan ko‘plab taklif va tashabbuslar bildirilib, muammolar o‘rtaga tashlangan edi. O‘tgan bir yil ichida bu uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarning aksariyati amalga oshdi, deyish mumkin. Masalan, o‘tgan yilgi takliflar asosida biznes subyektlari mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga bo‘lindi hamda ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviyl yordam rejimlari joriyl qilindi.

Bu sa‘y-harakatlar natijasida mazkur tumanlardagi tadbirkorlar o‘tgan olti oyda qariyb 1 trillion so‘mlik imtiyozlardan foydalangan. Buning hisobidan 20 ta tumandagi tadbirkorlarning daromadi

Nigoh

o‘tgan yildagiga nisbatan 1,5-2 barobar oshdi, boshqacha aytganda, joriyl yilning birinchi yarmida 7 trillion so‘mdan 11,5 trillion so‘mga ko‘paydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish muddati qisqartirilib, o‘tgan bir yil ichida 6 mingta korxonaga 20 trillion so‘m qaytarib berilgan ham hazil gap emas. Ayniqsa, eksportdan valyuta tushumini kutmasdan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini intizomli eksportchi korxonalarga qaytarib berish tartibi joriyl qilingani natijasida 2 mingdan ziyod tadbirkorning hisob raqamiga 7 trillion so‘m kelib tushgan.

Bunday misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Ammo asosiysi, natijalar faqat qog‘ozda emas, bevosita hayotimizda, tadbirkorlar faoliyatida aks etmoqda. Shu bois, soha vakillari navbatdagi ochiq muloqotni ham katta qiziqish bilan kutib, o‘z muammolari, takliflarini dadil bildirganiga guvoh bo‘ldik. Bular asosida davlatimiz rahbari tomonidan biznes

rivojiga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildiki, ularning barchasi yurtimizda tadbirkorlikning keng quloch yoyishi, ishbilarmonlar safi yanada kengayishiga turki beradi. Zero, mamlakatimizda, har bir tuman, mahallalarimizda tadbirkorlar ko‘payib borishidan barcha manfaatdor.

Ilgari surilgan yangi tashabbuslar bu boradagi aniq vazifalarni belgilab beradi. Jumladan, muloqot davomida tadbirkorlikka o‘g‘itish, ularga loyiha qilib berish, faoliyatini moliylalashtirish, mahsulotlariga bozor va biznesiga sheriklar topish bo‘yicha yaxlit ekotizim yaratilishi qayd etildi. Bunday yondashuv biznes rivoji uchun katta turki beradi.

Joylarda saylovchilar bilan uchrashuvlarimiz davomida tadbirkorlardan kelib tushayotgan murojaatlarning aksariyati banklardan kredit olishdagi qiyinchiliklar to‘g‘risida bo‘ladi. Ochiq muloqotda mazkur muammoga ham oddiy, ayni paytda juda samarador

yechim aytildi. Endilikda tadbirkor ko‘p daromad topishidan bank manfaatdor bo‘ladigan tizim yaratiladi. Bu oqilona tadbir O‘zbekistonni tadbirkorlar mamlakatiga aylantiradi.

Shu bilan birga, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ya olgan, kredit va soliq tarixi toza tadbirkorlarga faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50 foiz kamaytiriladi. Biznes bilan shug‘ullanayotgan yurtdoshlarimiz bu juda katta yengillik ekanini yaxshi biladilar, binobarin, bu yangilik ularni g‘oyat quvontirgani bor gap.

Ochiq muloqotda soliq tizimi tubdan isloh qililib, soliq idoralari xodimlarining yondashuvlari butunlay o‘zgartirilishi ham ta’kidlandi. Kelgusi yil 1-yanvardan boshlab reytingi yuqori korxonalar barcha turdagi soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi, ularga qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha qismi bir kunda qaytarib beriladi, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi guvohnomasini vaqtinchalik to‘xtatib turish amaliyoti bekor qilinadi.

Shuningdek, tadbirkorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga shikoyat qilishidagi har qanday cheklovlar olib tashlanadi. Soliq bo‘yicha tadbirkorlarga nisbatan da’vo kiritish muddati hozirgi 5 yildan 3 yilga kamaytiriladi. Soliq yoki kredit qarzini undirish bo‘yicha sud qarori chiqarilganda, penya va foizlar hisoblash to‘xtatiladi. Bundan tashqari, yana ko‘plab yengilliklar, yangi sharoit, imkoniyatlar tilga olindi. Bu o‘zgarishlar, yangiliklar, xalqona aytganda, tadbirkorlar davri keldi, qaddingni ur, tadbirkor, degani emasmi?

Hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar, yuqorida aytganimizdek, nainki tadbirkorlik, balki butun mamlakatimiz rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo mazkur yangilanishlarni amalga oshirish uchun barchamiz birga, hamfikrlkda harakat qilmog‘imiz lozim. Shundagina yurtimizda tadbirkorlik muhiti yanada rivojlanib, ishbilarmonlar safi kengayadi, buning ortidan xalq ham, davlat ham boy bo‘ladi.

DILDAGI GAPLAR

JAHON BOZORIDA BIR DOLLARLIK EKSPORT UCHUN HAM RAQOBAT BOR

Adham IMINJONOV,
Namangan shahridagi “Iftixor kiyim sanoat” MCHJ ta’sischisi,
“Mehnat shuhrati” ordeni sohibi:



— Katta-katta rejalar, orzu va maqsadlar qilmagan tadbirkor tadbirkor emas. Tadbirkorlikni boshlagan yillari bizda ham shunday maqsad va rejalar bo‘lgan. Ulardan biri “Made in Uzbekistan” belgisi tushirilgan mahsulotlarimizni xorij bozoriga chiqarish, sotish edi. Shu niyatimiz keyingi yillarda amalga osha boshladi. Bu biz, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlov va ishonch tufayli bo‘ldi. Natijada bizda qo‘rquv yo‘qoldi. To‘g‘risi, ilgari hisobraqamimizda qancha pul borligini ayitishdan cho‘chirdik, bor imkoniyatimizni yuzaga chiqarishga ikkilanib turardik. Chunki pulimizning ham, imkoniyatimizning ham so‘rovi bo‘lari edi-da.

Bugun bizni har qanday qo‘rquv hissi tark etdi. Ongu tafakkurimiz o‘zgardi. Dunyo bozorlarini zabt etishga kirishdik. Barcha qit’a bozorlarida yuzimiz yorug‘, qaddimiz tik. Bu ham yangi O‘zbekistonda yaratilgan faol va ishonchli ishbilarmonlik muhiti samarasidir.

Davlatimiz rahbari ikkita ish o‘rni yaratgan tadbirkorni yelkamda ko‘taraman, deb ko‘p takrorlaydi. Kechagi uchrashuvda ham buni yana bir bor eslatdi. Mubolag‘asiz ayta olamanki, tadbirkorga nisbatan bunday e’tibor avvallari bo‘lmagan.

Uchrashuvda dunyoqarashimizni o‘zgartirmas ekannimiz, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish mushkulligini haqida ham gap bordi. Bu gapning qanchalik haqiqat ekanini faoliyatimiz misolida qisqacha aytib o‘tsam.

Gap shundaki, yaqin-yaqingacha biz faqat xomashyo sotish bilan

ODDIY USTADAN YIRIK ISHBILARMONGA AYLANDIM

Shuhrat MURODOV,
Qarshi shahridagi
“Alp Texno Servis” xususiy
korxonasi rahbari,
“Shuhrat” medali sohibi:



— Faoliyatimizni 2006-yili sinfdoshim Sanjar bilan televizor, elektr jihozlari, kompyuterlarni tuzatishdan, ya’ni oddiy ustachilikdan boshlaganmiz. O‘shanda kun kelib, Qashqadaryoda televizor ishlab chiqaradigan korxona egasi bo‘lamiz, deb sira o‘ylamaganmiz.

Hozirgi kunda korxonamizda 120 ga yaqin yigit-qiz ishlaydi. Ularning barchasi malakali mutaxassis. Buni qulay ishbilarmonlik muhiti samarasi, deb bilamiz.

Chunki 2006-yildan boshlab o‘n yil davomida erishganimiz faqat elektro-texnika ehtiyot qismlarini sotish va ta’mirlash uchun mo‘ljallangan kichikroq bir do‘kon edi. Shunda ham deyarli har kuni tekshir-tekshirlardan bezor edik. Bugun katta korxona egasimiz, lekin oxirgi marta qachon tekshiruvchi kelgan, esolmaymiz.

Prezidentimizning 2016-yili Qashqadaryoga tashrifi faoliyatimizda tub burilish yasadi. O‘shanda televizor ishlab chiqarish loyihasini taqdimot qilganmiz. Davlatimiz rahbari chet el tajribasini o‘rganib qaytishni maslahat bergan edi. Shundan so‘ng Xitoyga borib televizor ishlab chiqarish tajribasini o‘rgandik. Ko‘p o‘tmay kichik bir liniyani olib kelib, ishlab chiqarishning dastlabki bosqichini boshlab yubordik.

O‘sha vaqtda bizni davlat qo‘llab-quvvatlamaganida, imtiyozlar berilmaganida, balki ishimiz bu darajaga yetmas edimi, deb o‘ylaymiz. Ya’ni tadbirkorlarga kreditlar o‘z vaqtida ajratilishi, ishlab chiqarish faoliyatini boshlamog‘chi

“KREDITLAR TADBIRKORLARGA 5-7 YIL MUDDATGA IMTIYOZLI SHARTLAR ASOSIDA BERILADI. USHBU MABLAG‘LARNING 150 MILLION DOLLARI BO‘YICHA KREDIT LINIYALARI 1-OKTYABRDAN OCHILADIGAN BO‘LDI. O‘Z BIZNESINI YO‘LGA QO‘YA OLGAN, KREDIT VA SOLIQ TARIXI TOZA TADBIRKORLARGA FAOLIYATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH UCHUN KREDIT OLIISHDA GAROV TALABI 50 FOIZ KAMAYTIRILISHI HAM SOHA RIVOJIGA XIZMAT QILISHI BILAN AHAMIYATLIDIR.

“... MAHSULOT SIFATINI OSHIRING, DUNYOGA CHIHING”

O‘ktamjon ORTIQOV,
Asaka tumanidagi
“Sino International Invest”
MCHJ direktori,
“Shuhrat” medali sohibi:

— Bugun mamlakatimizda biznes muhiti tubdan o‘zgardi. Ilgari tadbirkor deyilganda shunchaki savdogar tushunilgan bo‘lsa, bugun u ishlab chiqaruvchi, ish o‘rinlari tashkil etuvchi, bir so‘z bilan aytganda, iqtisodiyotimizning yetakchi kuchiga aylanmoqda.

Bundan ikki yil oldin davlat rahbarining biznes vakillari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvi tashkil qilinib, to‘planib qolgan masalalarga birgalikda yechim topish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan edi.

2021-yilda mana shunday muloqot ortidan 57 ta, 2022-yilda esa 55 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Shu yil 18-avgust kuni bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda ham biz, tadbirkorlar ko‘nglida ko‘plab gaplar aytili. Xususan, ochiq muloqotda korxonamiz nomi qayta-qayta tilga olindi. “...Chet el brendini olib keling, mahsulot sifatini oshiring, dunyoga chiqing”, dedi davlatimiz rahbari. Bundan boshimiz osmonga yetdi.

Kichik biznes — bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan tadbirkorlik subyekti. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko‘plab davlatlarda ish o‘rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda.

Biz uchun yana bir muhim yangilik. Endi kichik biznes loyihasining 10 foiziga tadbirkor investitsiya kirisha, 45 foiziga Biznesni rivojlantirish banki, qolgan 45 foizi uchun davlat ko‘magida resurs yo‘naltiriladi.

Kreditlar tadbirkorlarga 5-7 yil muddatga imtiyozli shartlar asosida beriladi. Ushbu mablag‘larning 150 million dollari bo‘yicha kredit liniyalari 1-oktabrdan ochiladigan bo‘ldi. O‘z biznesini yo‘lga qo‘ya olgan, kredit va soliq tarixi toza tadbirkorlarga faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50 foiz kamaytirilishi ham soha rivojiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Loyihani amalga oshirishda qo‘shimcha resursga ehtiyoji bor korxonalarga mavjud kreditga qo‘shimcha mablag‘ ajratishga ruksat beriladi. Buning uchun yiliga qo‘shimcha 1 trillion so‘m ajratiladi. Shuningdek, loyiha doirasida olib kiriladigan asbob-uskunani sug‘urtalash, xomashyo va materiallarni sertifikatlash xarajatlari markazlar tomonidan qoplab beriladi. Eng muhimi, dasturda ishtirok etayotgan kichik biznes korxonalari faoliyatini uch yilgacha tekshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

To‘g‘risi, “Shuhrat” medaliga loyiq ko‘rilaman, deb o‘ylamaganman. Bundan juda xursand bo‘ldim.

Kelgusida mana shu yengillik va imkoniyatlardan foydalanib, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va qo‘shimcha ish o‘rinlari, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga o‘z hissamni qo‘shishga harakat qilaman.



YANGICHA YONDASHUVLAR



MILLIY TAYANCH TAMOYILLAR

ularning statistika sifatini ta'minlashda tutgan o'rni



Anvar TO'LAGANOV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi
boshqarma boshlig'i
o'rinbosari

Har qanday sohada bo'lgani kabi statistikada ham sifatni ta'minlash belgilangan ma'lum mezon va qoidalariga rioya etishni, barcha bosqich va jarayonlarni aniq rejalashtirish va tizimli amalga oshirishni, zarur moliyaviy, texnologik va boshqa resurslarni jalb etishni, mavjud tizim va vositalarni muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi. Tizim faoliyatini tashkil etishning samaradorligi esa sohaga xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg'or modellari va tizimlarni keng joriy etilishi bilan chambarchas bog'liq. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda statistika sohasini yangi bosqichga ko'tarish va tubdan isloh qilish, mazkur milliy tizimga zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni keng joriy qilish orqali rasmiy statistikaning sifati va unga bo'lgan ishonchni yanada oshirish borasida keng ko'lami chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan sifatni boshqarishning xalqaro darajada e'tirof etilgan ilg'or tizimlarini bosqichma-bosqich tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilayapti.

So'nggi ikki yilda BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan statistika idoralari faoliyatiga qo'llanilishi tavsiya etilgan Statistik ma'lumotlarning (GSIM), Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining (GSBPM) hamda Statistika idoralari faoliyatini boshqarishning (GAMSO) namunaviy modellari talablarini joriy etish borasida zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Shu o'rinda ushbu ilg'or modellari va ularning mohiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tsak:

GSIM modeli — foydalanuvchilarga tarqatiladigan statistika ma'lumotlarini shakllantirish qoida va talablarini belgilab beradi.

GSBPM modeli — statistika ma'lumotlarini ishlab chiqarish bosqichlari va jarayonlarini tartibga soladi.

GAMSO modeli — statistika idorasi tomonidan amalga oshiriladigan umumiy faoliyatni belgilab beradi va tizimlashtiradi.

Ushbu xalqaro modellarni milliy statistika tizimiga joriy etishni ta'minlash maqsadida Statistika agentligi tomonidan GSBPM va GAMSO modellari asosida milliy tizimlar ishlab chiqildi, ularni amalga oshirishga joriy etish bo'yicha uslubiy hujjatlar yaratildi.

Hozirgi kunda mavjud resurslar va ichki imkoniyatlardan samarali foydalanilgan holda, ushbu modellarni yuritimda bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha zarur tashkiliy choralar ko'rilmog'da.

Xalqaro modellar qanday manfaat keltiradi?

Har bir davlat o'z milliy statistikasini tashkil etishda unga bo'lgan talablar, amal qilinishi lozim bo'lgan prinsiplar, tartib-tamoyillar va boshqa jihatlarni milliy qonun va qonunoshti hujjatlari bilan tartibga soladi hamda amalga oshiradi.

Rasmiy statistika sohasida xalqaro darajada qabul qilingan me'yorlar, talab va tavsiyalar esa mamlakatda statistika faoliyatini tashkil etish ishlarini tartibga solish, tizimlashtirish, maqbulashtirish va albatta, rasmiy statistika sifatini baholash imkonini beradi.

Sifatni boshqarish bo'yicha xalqaro talab va tavsiyalarga muvofiq, har qanday mamlakat statistika idorasining samarali faoliyat ko'rsatayotgani, ishlab chiqarish jarayonlarining belgilangan talablarga javob berishi hamda tayyorlanayotgan ma'lumotlarning sifatligini ta'minlash ishlari baholab borilishi lozim. Chunonchi, sifatni boshqarish va baholash tizimi milliy statistika faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, o'z navbatida, bu sohada sifat siyosati va uni baholash dasturini amalga oshirishni talab etadi.

Mazkur talablarni bajarish, xususan, sifatni boshqarish tizimining samarali ishlashini ta'minlash maqsadida bu borada milliy tayanch prinsiplarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun BMT Statistika komissiyasi tomonidan 2019-yilda qabul qilingan "Rasmiy statistikada sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari (NQAF) bo'yicha qo'llanma" asosiy manba hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyodagi 60 dan ortiq davlat tomonidan amaliyotda joriy etilgan **BMTning Sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari** rasmiy statistika sifati va unga nisbatan ishonchni ta'minlashga yordam beruvchi boshqarishning izchil va uyg'un tizimini taklif etadi.

Ushbu qo'llanma ma'lumotlar manbalari,



ularni yetkazib beruvchilar hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha ko'rsatkichlar sifatini ta'minlash yuzasidan mezon va tavsiyalarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplarini joriy etishda mamlakatlarga amaliy yordam beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Holbuki, NQAF qo'llanmasi nafaqat statistika organlari, balki mamlakat milliy statistika tizimiga kiruvchi barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan shakllantiriladigan va tarqatiladigan rasmiy statistika sifatini ta'minlashga ko'maklashadi.

NQAF talablari asosida faoliyat yuritilishning qanday afzaliklari bor?

Birinchidan, NQAF modelini boricha qabul qilish, unga qo'shimcha qilish yoki uning asosida o'z prinsiplarini ishlab chiqish mumkin.


Ikkinchidan, sohada tizimli monitoring yuritish, uzluksiz ravishda xatar va muammolarni aniqlash hamda o'z vaqtida tuzatish choralari ko'rish imkonini beruvchi mexanizmlar mavjud.

Uchinchidan, milliy va xalqaro darajada sifat sohasida muammo va imkoniyatlar bo'yicha muloqot qilish uchun umumiy tamoyillarga ega.

To'rtinchidan, milliy statistika tizimi doirasida sifatni ta'minlashni joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash uchun asoslar yaratilgan.

Shuningdek, NQAFning joriy etilishi, milliy statistika tizimi ichida o'zaro hamkorlik aloqalarini va sifatni o'lchash tartib-taomillarining shaffofligini yaxshilaydi hamda milliy statistika tizimini muvofiqlashtiruvchi organ va boshqa rasmiy statistikani ishlab chiqaruvchilarga

BMTning Sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari (NQAF) tuzilmasi



nisbatan ishonchni oshiradi.

Umuman olganda, NQAF tuzilmasi 4 ta daraja va har birida rioya etilishi zarur bo'lgan jami 19 ta prinsip, ularning amalga oshirilishini ta'minlash uchun 87 ta talablar hamda mazkur qoidalarini bajarish uchun ko'riladigan choralarni tavsiflovchi jami 364 ta sifat elementlaridan iborat.

NQAFning dastlabki A darajasi **Statistika tizimini boshqarish** hisoblanadi.

Ma'lumki, milliy statistika tizimi rasmiy statistikani ishlab chiqadigan va tarqatadigan hamda qoidaga ko'ra, milliy statistika organi tomonidan boshqariladigan statistika organlari va muvofiqlashtiriladigan rasmiy statistikani boshqa ishlab chiqaruvchilardan iborat.

Shunga ko'ra, Statistika tizimini boshqarish darajasi doirasida sohani muvofiqlashtirish va barcha muhim tomonlar bilan hamkorlikni nazorat qilish orqali sifatni ta'minlash va rasmiy statistikani samarali ishlab chiqarish uchun dastlabki poydevor vazifasini o'taydi.

Bu jihat milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, statistik standartlarni boshqarish kabi prinsiplarga rioya etilishi talab etadi. Shuning uchun milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish prinsipi, qonunchilik hujjatlari bilan milliy statistika tizimiga kiruvchi tashkilotlar va ularning majburiyati, muvofiqlashtiruvchi organ hamda uning vakolatlari belgilab



qo'yilishini, rasmiy statistikani ishlab chiqish va rivojlantirish uchun milliy dasturlarning mavjud bo'lishini ko'zda tutadi.

Statistika tizimini boshqarishning

NQAF tuzilmasidagi keyingi daraja bu **statistik jarayonlarni boshqarishdir**.

Rasmiy statistikani ishlab chiqish va tarqatish uchun statistika organlari foydalanadigan jarayonlar doirasida xalqaro standartlar, qo'llanmalar va ilg'or amaliyotlarga to'liq rioya etilishi, bunda innovatsiyalar doimiy ravishda joriy etib borilishi lozim. Chunki statistika organlari yaxshi boshqariladigan va samarali muassasa sifatida nom qozonganda statistikaga nisbatan ishonch yanada ortib boradi.

Xususan, statistika ma'lumotlarini ishlab chiqarishda statistika organlari xalqaro miqyosda tavsiya etilgan standartlar, qo'llanmalar va ilg'or tajribalarga asoslangan holda qabul qilingan samarali metodologiyalardan foydalanishlari kerak. Shuningdek, statistika organlari mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanilishini nazorat qilib borishlari talab etiladi. Bunda, zarur hollarda, ular ko'zlangan maqsadlarga qay darajada erishilganini tushuntirib bera olishlari, ushbu natijalarga asossiz xarajatlarga yo'l qo'yilmasdan erishilganini va ular statistikaning maqsadlariga mos kelishini asoslab bera olishlari lozim.

Sifatning yaxshilanishi statistik tartib-taomillarining oqilona va samarali ekaniga bevosita bog'liq. Shu bois, bunday munosib tartib-taomillar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqarishning barcha bosqich va jarayonlarida ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

NQAFning so'nggi to'rtinchi darajasi — **statistika mahsulotlarini boshqarish** hisoblanadi.

Ma'lumki, tizim keng ommaning, shu jumladan, mamlakat hukumati, ilmiy-tadqiqot muassasalari, biznes, jamoatchilik va xalqaro hamjamiyatning sifati rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydi. Shunga ko'ra, statistika mahsulotlarining sifati shunday daraja bilan o'lchanadiki, unda statistika ma'lumotlari qo'llashga yaroqli, aniq va ishonchli, puxta va o'z vaqtida bajariladigan, foydalanuvchilar uchun qulay va tushunarli, geografik hududlar va davrlar bo'yicha o'zaro bog'liq hamda qiyosiy bo'lishi lozim. Bular statistika mahsulotlarini boshqarishda amal qilinishi lozim bo'lgan prinsiplardir.

Statistika organlari ma'lumotlarini e'lon qilishdagi kechikishlarni minimal darajada kamaytirishlari kerak. Chunonchi, ma'lumotlarning o'z vaqtidaligi, ularning qanchalik tez (hisobot sanasidan keyin yoki hisobot davri tugaganidan so'ng) foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazilganini bildiradi. Ma'lumotlarning puxtaligi esa ularning va'da qilingan, avvaldan

rejalashtirilgan yoki belgilangan sanada e'lon qilinganini anglatadi.

Yana bir amal qilinishi lozim bo'lgan prinsip, bu ma'lumotlarning foydalanuvchilar uchun qulay va tushunarli bo'lishidir. Shu bilan birga, birlamchi statistika ma'lumotlarining maxfiyiligi ta'minlangan holda, foydalanuvchilarga ulardan ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun foydalanish imkonini yaratish ham ko'zda tutilishi kerak.

Statistika mahsulotlarini boshqarish darajasida rioya etish lozim bo'lgan oltita prinsipni ta'minlash uchun NQAF tavsiyalariga ko'ra, 24 ta talab va 103 ta sifat elementlarini bajarish talab etiladi.

Sifatni ta'minlashning boshqa omillari

BMTning Sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari statistika sohasining barcha yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda keltirilgan talablar va sifat elementlarining ko'lami keng, ko'p bosqichli va murakkabdir. Bu esa ushbu talablarni bajarish uchun barcha darajalarda katta salohiyat, vaqt va zarur resurslar jalb etilishini talab etadi.

Ma'lumki, Statistika agentligining asosiy missiyasi — foydalanuvchilarning yuqori sifatlil rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish maqsadida sohada davlat siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda, hozirgi kunda agentlik tomonidan BMTning Sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari va bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish hamda NQAF talablarini tizimli joriy etish yuzasidan zarur choralar ko'rilmog'da.

Jumladan, NQAF talablarida ham qayd etilgan va milliy statistika tizimiga sifatini boshqarishning xalqaro darajada e'tirof etilgan GSIM, GSBPM va GAMSO kabi ilg'or tizimlari mamlakatimizda joriy etilayotgani ko'zlangan maqsadlarga bosqichma-bosqich erishish uchun muhim omil bo'lmoqda. Zero, ushbu ilg'or tizimlarda belgilab qo'yilgan talablar joriy etilishi kelgusida sohada sifatni ta'minlash ishlarni baholashda ijobiy natijalarga erishilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, joriy yilda Statistika agentligining sifat sohasidagi siyosati qabul qilindi. Unga ko'ra, tizimda sifatni boshqarish va baholash tizimlarini, uni ta'minlashning milliy asosiy prinsiplarini joriy etish va samaradorlikni yanada oshirish belgilangan.

Statistika agentligi tomonidan kelgusida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan navbatdagi tadbirlar mamlakatimizda sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplarini ta'minlash bo'yicha sifatni boshqarish qo'llanmasini ishlab chiqish, tizimda statistika jarayonlari va sifatni boshqarish bo'yicha (GSBPM va NQAF talablari asosida) standartlar, ularga amal qilish holati va xalqaro andozalarga mosligi yuzasidan o'rganishlarni tashkil etishga qaratilgan.

Bu talablarining joriy etilishi milliy statistika tizimiga qanday samara keltiradi? Birinchidan, soha faoliyati samarali tashkil etiladi va muvofiqlashtirib boriladi. Ikkinchidan, ochiqlik va shaffoflik ta'minlanadi. Uchinchidan, foydalanuvchilarga ishonchli, xolis, dolzarb va sifatlil ma'lumotlar yetkazib beriladi. To'rtinchidan, sifatni boshqarish va baholash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Erishilgan natijalar esa pirovardida milliy statistika sohasi faoliyatining xalqaro sifatini boshqarish tizimlariga mos kelishini ta'minlaydi hamda xorijiy va milliy foydalanuvchilarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.



INSON QADRI UCHUN

CHEKKA QISHLOQDAGI SAYYOR QABUL fuqarolar murojaatlariga yechim topilyaptimi?

Tohira MUYDINOVA,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
Kosonsoy tumanidagi
Xalq qabulxonasi mudiri

Xalq qabulxonasi tomonidan murojaatlar o'rganilganda, eng avvalo, ularni yuzaga keltirayotgan omillar, sabablar va shart-sharoitlar to'liq o'rganib chiqiladi. Pirovardida takroriy murojaatlarning oldi olinib, muammoni hal qilish amaliyoti samaradorligini oshirish imkoni yuzaga keladi.

Fikrimizni ba'zi misollar bilan davom ettiramiz. Masalan, A.Abdikarimov 2020-yildan buyon Chov churraasi kasalligidan aziyat chekayotgani, order olish uchun tuman tibbiyot birlashmasiga bir necha marta murojaat qilsa-da, hech qanday natija bo'l-magani haqida aytgan. Fuqaroning order olishda amaliy yordam so'rab qilgan murojaatiga asosan, u tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi va Namangan viloyat ko'p tarmoqli jarohlik bo'limida imtiyozli davolanishi uchun order berildi.

Yana bir fuqaro B.Yuldashevning yashash hududidagi elektr tarmog'i uskunalarini (simyog'och, transformator punkti) ta'mirlash va o'rnatish masalalari yuzasidan qilgan murojaatiga asosan, "Qorasuv" MFY Yoshlik-1 ko'chasi hududidagi yaroqsiz simyog'ochlar yangisiga almashtirilib, qo'shimcha simyog'ochlar ham o'rnatildi va AAVG-25 markali sim tortildi.

M.Boboxojayev yashab kelayotgan "Bog'ishamol" MFY Oltin meros ko'chasidagi ichimlik suv yetib bormagan xonadonlarga suv tarmog'ini o'tkazishni so'rab qilgan murojaatiga asosan, ushbu ko'chadagi

xonadonlarning barchasi ichimlik suv ta'minotiga ulab berildi.

Keyingi yillarda joylarda ommaviy sayyor qabullar o'tkazish tizimi samarali yo'lga qo'yilishi tufayli odamlar davlat idoralari-dan, umuman, bugungi islohotlardan rozi bo'la boshladi.

Ana shu maqsadda, joriy yil davomida Kosonsoy tumanida 127 marotaba sayyor qabul o'tkazildi. Natijada muammolar chekka qishloqlarga borib, uyma-uy yurib hal etilishi yaxshi samara berdi. Aholini qiyab kelayotgan masalalarga o'z vaqtida yechim topildi.

O'tkazilgan sayyor qabullarda ishtirok etgan 3500 dan ziyod fuqarodan 694 murojaat tushdi. Shundan 468 tasi ijobiy hal etilib, 154 tasiga tegishli huquqiy tushuntirishlar berildi, qolgan murojaatlar qo'shimcha o'rganishni talab etgani sababli nazoratga olindi.

Agar sohalar kesimida tahlil qilsak, murojaatlarning eng ko'pi moddiy yordam, gaz, elektr, suv, issiqlik ta'minoti, uy-yoy, yer, ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, mahallaning ichki yo'llarini ta'mirlash, kredit olish masalalarida bo'ldi.



Murojaatlar ijobiy hal etilishi bilan fuqarolardan Prezident nomiga 100 dan ortiq minnatdorlik xatlari kelib tushdi. Bundan tashqari, "Temir daftar", "Ayollar daftar" va "Yoshlar daftar"ni shakllantirish, unga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini kiritish yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlashda ham o'zaro hamkor tashkilotlar bilan uyma-uy yurib, xatlov ishlari amalga oshirilmog'da.

Bundan tashqari, Oqqo'rg'on tajribasi bo'yicha Kosonsoy tumanida aholi muammolari va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni o'rganish hamda hal etish bo'yicha sektorlar va mahallalar kesimida "xonadonbay" ish tashkil etildi.

Xususan, 59 mahallada mavjud 38 ming 185 xonadonning barchasi o'rganildi. Uyma-uy yurish davomida 6182 muammo aniqlanib, 5711 tasi hal etildi, 471 masala bo'yicha ishlar nazoratga olindi.

Yuqorida keltirilgan raqam va misollar shunchaki statistika emas. Ularda inson taqdiri va kelajakka umid, farovon hayotda baxtli yashash kabi ezuq maqsad hamda niyatlar mujassam.

Bir so'z bilan aytganda, xalq bilan muloqotning bu noyob tizimi tufayli murojaatlar bilan ishlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bugungi izchil islohotlar jarayonida Xalq qabulxonalarining zimmasida katta mas'uliyat turibdi.

31-AVGUST — QATAG'ON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

...Katta salohiyatga ega yetakchilar, olimlar, adiblar, shifokorlar, o'qituvchilar qatag'on qilingan. Ular xalqimizning eng sara vakillari edi. Mustabid tuzumga millat ko'zini ochadigan, unga o'zligini tanitadigan ziyoli insonlar kerak emas edi. Ularning aybi — buyuk bo'lgani.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

YURT UCHUN JONINI JAFOGA QO'YGANLAR UNUTILMAYDI

yoxud O'rta Osiyoda ilk badiiy kinofilm qachon olingan va uning tashabbuskori kim edi?

Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimlari tomonidan Prezidentimizning 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishida ko'zda tutilgan dolzarb vazifalarni bajarish yuzasidan bir qator ishlar olib borilyapti.

Xususan, muzey ilmiy xodimlari tomonidan Rossiya Federatsiyasi kino va fotohujjatlar arxivi bilan o'zaro hamkorlik shartnomasi imzolaniib, mazkur arxivda saqlanayotgan, mamlakatimiz tarixiga doir muhim kinoxronikalar muzey ixtiyoriga topshirilmoqda.

Ular orasida andijonlik jadid, mohir diplomat, davlat va jamoat arbobi, sovet hokimiyatining 1937-1938-yillardagi mudhish "katta qirg'in" siyosati qurboni Abdurahim Yusufzodaning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi, avval keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan 5 ta kinoxronika topib o'rganiladi va ilmiy iste'molga kiritildi. Unda Buxoro xalq sovet respublikasining Moskvadagi muxtor vakilligi binosi, muxtor vakil A.Yusufzoda, uning turmush o'rtog'i Oyimchaxon Yusufzoda, o'g'li Fotihbek, buxorolik taniqli jamoat arboblari bilan bo'lgan Safo Jo'raboyev, shuningdek, muxtor vakillikda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa o'zbek xodimlarining diplomatik faoliyati aks etgan.

Abdurahim Yusufzoda aslida kim edi? U 1880-yili Andijonda tavallud topgan. 12 yoshida savodi chiqqach, Andijondagi madrasaga qabul qilinib, 3 yil arab tilini o'rgangan. 1895-yil o'qishni davom ettirish uchun Buxoroga borib, 15 yil o'qigan. Zehni o'tkir, aqlu zakovatli, axloq-odobda ibratli Abdurahim madrasa ahli hurmatini qozondi, mudarrislar ishonchi, ehtiromiga sazovor bo'ldi. Ilm dargohini tamomlagandan so'ng mazkur musulmon oliy maktabida mudarrislik qildi.

1912-yildan Buxoroda vujudga kelgan taraqqiyparvarlarning yashirin jamiyatida ishlay boshlagan. 1917-yilgacha Buxorodagi Ayozyboy madrasasida talabalarni o'zbek, arab va fors tillariga o'rgatgan. Buxoroda yuzaga kelgan jadidchilik harakati, undan o'sib chiqib, amirlik saltanatini larzaga keltirgan "Yosh buxoroliklar" Buxoroda amirlik tuzumiga barham berishda muhim rol o'ynadi. Ilg'or fikrlovchi, arab, fors va rus tillarining mohir bilimdoni sifatida o'sha davr ziyolilari orasida katta martabaga erishgan A.Yusufzoda "Yosh buxoroliklar"ning taniqli yetakchilaridan biri bo'lgan.

A.Yusufzoda 1917-yil aprelda Buxoroda bo'lgan mashhur namoyishni bevosita tashkil etgan va unda



qatnashganlardan edi. Behuda qon to'kilgani uchun A.Yusufzoda va boshqa vakillar amir bilan muzokara uchun qushbegi huzuriga keladilar. Biroq ular arkda hibsga olinib, zindonband etiladi va amir jallodlari tomonidan qattiq kaltaklanadi.

1920-yil 29-avgustda A.Yusufzoda, Beshim Sardorov va Hasan Aliyevdan iborat Chorjo'y inqilobiy qo'mitasi tuzildi. A.Yusufzoda shu yil Chorjo'yda bo'lgan Buxoro Kompartiyasining 4-qurultoyida faol qatnashadi. BXSР tashkil bo'lgandan so'ng u hukumat a'zosi — yer-suv ishlari xalq noziri etib saylandi. Bu nozirlikda 3 oy davomida faoliyat ko'rsatgach, diplomatiya xizmatiga safarbar qilingan. Dastlab 1921-1922-yillarda BXSРning Afg'onistondagi muxtor vakili bo'lib ishlagan. Kobulga borish jarayonini esdaliklarida yozib qoldirgan.

A.Yusufzoda Kobulda elchi bo'lib turgan davrda siyosiy ahvol nihoyatda og'ir edi. Afg'onistonda Buxoro jumhuriyatiga qarshi kurash olib boruvchi turli kuchlar mavjud edi. U bir necha bor Afg'oniston amiri Omonulloxon bilan uchrashib, ikki o'rtadagi munosabatlار haqida muiloqot qilgan va BXSРning har jihatdan qo'llab-quvvatlanishiga erishgan.

A.Yusufzoda 1922-yil iyunida Buxoroga qaytib keladi. U BXSР hukumati boshlig'i Fayzulla Xo'jayevning shaxsan taklifi bilan adliya noziri etib tayinlanadi. U mazkur lavozimda BXSРda adliya tizimini, qozilik va sudlov idoralarini isloh qilishda katta xizmat ko'rsatdi. Biroq sovet hukumati tomonidan bu xizmatlar "sotsialistik rivojlanish yo'liga qarshi" deb e'lon qilinib, ularning qat'iy talabi bilan A.Yusufzoda o'z lavozimidan quyiоr lavozimga o'tkaziladi.

1923-yil aprelidan 1924-yilning 12-martigacha

A.Yusufzoda BXSРning Moskvadagi muxtor vakili bo'lib faoliyat ko'rsatadi. Elchilik faoliyati davrida u Buxoro respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotiga ko'p kuch sarflagan, RSFSR va SSSR bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'ygan. Uning harakati tufayli Moskva shahri Krasnaya Presnya rayoni BXSР bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yib, delegatsiyalar almashgan.

Abdurahim Yusufzoda 1924-yil boshlarida Moskvada rus va o'zbek tilida "Buxarskaya jizn" ("Buxoro hayoti") jurnali ochib, o'zi muharrirlik qilgan. Jurnal sahifasida Buxoro va uning tarixi, taqdiri, istiqboli haqida ko'plab maqolalar chop etilganki, ular hozir ham ilmiy ahamiyatga molik.

Muxtor vakil A.Yusufzodaning tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan BXSР Maorif nozirligi va "Sevzapkino" tashkiloti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolaniib,

1924-yil 12-aprelda O'zbekistondagi ilk kinostudiya — "Buxoro-Rus kinojamiyati" ("Buxkino") tashkil etiladi. O'rta Osiyodagi ilk badiiy kinofilm — "O'lim minorasi" suratga olingan.

Shu bilan birga, Buxoroi sharifning tarixiy yodgorliklarini ta'mirlash g'oyasi va amaliyoti 1924-yildayoq Fayzulla Xo'jayev bilan Abdurahim Yusufzoda tomonidan boshlangan edi. Abdurahim Yusufzoda bu masala bilan Moskvada turib ham faol shug'ullangan.

Fayzulla Xo'jayev va Abdurahim Yusufzoda tashabbusiga ko'ra, mashhur me'mor, professor M.Y.Ginzburg bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, olim xodimlari bilan Buxoroga kelib, quyidagi vazifalarni bajarishi ko'rsatilgan edi: Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tarixiy va san'at yodgorliklarini tadqiq etish va ilmiy ro'yxatga olish, vayron bo'lgan va bo'layotgan yodgorliklarga nisbatan shoshilinch ta'mirlash choralarini ko'rish uchun reja va loyiha ishlab chiqish, ularning bajarilishini kuzatish, muhim yodgorliklarni ilmiy jihatdan o'lchab, rasimga olish, Buxoroda badiiy va badiiy-hunarmandlik muzeyi tashkil etish, buning uchun smeta tuzib, hukumat tasdiq'idan o'tkazish.

Mazkur shartnomaning 1-4-bandlarini amalga oshirish uchun Ginzburg Buxoroga 2-3 oy muddatga kelishi, keyinchalik agar Buxoro hukumati bu ishni muntazam olib borishni lozim ko'rsa, yiliga bir martadani ko'proq kelib, ish yuzasidan nazorat olib borishi mumkin bo'ldi.

Ginzburg hamkasblari bilan Buxoroga keladi, tarixiy yodgorliklar bilan yaqindan tanishadi, o'rganadi, ta'mirllov ishlari boshlab yuboradi.



A.Yusufzoda "Milliy itihod" nomli aksilinqilobiy, millatchi tashkilotga mansublikda ayblangan. U og'ir betobligiga qaramay, tergovchining savollariga javob berishga majbur qilinadi. O'zSSR NKVD huzuridagi "uchlik"ning 1937-yil 14-oktabrdagi qarori bilan O'zbekistondagi aksilinqilobiy tashkilotlardagi ishtiroki va sovetlarga qarshi ishi uchun 13 nafar o'zbek farzandi otuvga hukm qilindi. Hukm 1937-yil 25-oktabrda ijro etildi. Ularning biri Andijon farzandi Abdurahim Yusufzoda edi.

Oradan 28 yil o'tib, 1965-yil 22-sentabrda mudhish "uchlik"ning 1937-yil 14-oktabrdagi hukmi bekor qilinadi. Abdurahim Yusufzoda qonuniy yo'l bilan oqlandi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Azizbek MAHKAMOV,
Andijon davlat universiteti
tuzilmasidagi Qatag'on
qurbonlari xotirasi muzeyi katta
ilmiy xodimi

TAQDIMOT



Turkiy xalqlar tilida geografik atama hisoblangan "Mo'yin" so'zi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "bo'ynoq" — "tog' bo'yni" deb izohlanadi. Mo'ynoqlik keksalar esa ilgari dengizga tutashib ketgan qirg'oq olisdan oqarib ko'zga tashlanganidammi, bu manziling "mo'yini (ya'ni bo'yni oq)" deb atalganidan so'zlaydi.

“YANGI MO'YNOQ” KITOBINI BIR VARAQLANG...

Davlatimiz mustaqilligining 32 yillik tantanasi arafasida chop etilgan "Yangi Mo'ynoq" nomli kitob-albomi xalqimiz uchun o'ziga xos tuhfa bo'ldi. Qoraqalpog', o'zbek, rus, ingliz tillarida va o'ziga xos dizayn, yuqori matbaachilik talablari darajasida nashr etilgan 330 sahifadan ortiq kitob-albomda Mo'ynoq tarixi va buguni haqida yuqoridagidek qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Tadbir Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamkorligida tashkil etildi. Kitobda o'tgan asr o'rtalarida Orol dengizining qirib borishi oqibatida kelib chiqqan muammolarning achchiq fojialari, dengiz chekinib, sho'rlangan yer, suv, havo odamlarning salomatligi va turmush tarziga putur yetkazayotgani, Yangi Mo'ynoqda qad rostlagan zamonaviy uylar, xiyobon va mehmonxonalar, bog'chamaktablar, yangi korxonalarda ishlab chiqarilayotgan eksport mahsulotlari, hududda amalga oshirilayotgan keng ko'lami o'zgarish va yangilanishlar o'z ifodasini topgan.

— Har bir davrning xalq qahramonligi, umumxalq safarbarligini taqozo etadigan voqealar ko'p. Katta Farg'ona kanalining qurilishi, Mirzaxo'lining o'zlashtirilishi chinakamiga xalq qahramonligi epopeyasiga aylangan bo'lsa, Mo'ynoqning bugungi qiyofasini yaratish yangi O'zbekiston davrining o'ziga xos xalq qahramonligini ifoda etadigan voqealardan biri bo'ldi, — deydi siyosiy fanlar doktori, professor Nazrulla Jo'rayev. — Mo'ynoqning eng yangi tarixi solnomasi bo'lgan kitobning asosiy yutuqlaridan biri — hududdagi avvalgi vayronalar bilan hozirgi zamonaviy qiyofa manzaralari yonma-yon qo'yilgani. Shuningdek, kitob qoraqalpog' xalqining bugungi hayoti, ruhiyati, ertangi kunga umidini aks ettirgan.

Kitob Mo'ynoqning kecha va buguni, tarixiy o'zgarishlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotida erishilgan natijalar, bir paytlar unutilib, e'tibordan chetda qolgan manzilga yana jo'shqin hayot qaytganidan hikoya qiladi. Sobiq ittifoq davrida O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun cho'llarning ayovsiz o'zlashtirilishi, suv ko'p talab qiladigan paxta yetishtirishga zo'r berilishi kabi sabablar bilan Orol fojiasi yuzaga kelgani aytiladi.

"Yangi Mo'ynoq" kitob-albomi bugun Mo'ynoqdagi o'zgarishlarni ko'rib, ko'pchilik ko'chib ketganlar ota makonga qaytib kela boshlagani, odamlarning kayfiyati tubdan o'zgartirgan zamirida qanchadan-qancha insonlarning mashaqqatli mehnati yotganiga ishonchli dalil, aniq bir ishoradir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zero, davlatimiz rahbari aytganidek, kimki islohotlarimiz samarasiga shubha qilsa, Mo'ynoqga kelib ko'rsin!

Bizningcha, Mo'ynoqqa bora olmaganlar "Yangi Mo'ynoq" kitobini bir varaqlaslin!

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

MA'NAVIYAT

Xalqimiz o'g'itlarida insonlarga qo'limiz bilan yaxshilik qila olmasak, shirin so'zimiz, mehru-muhabbatimiz ila himmat ko'rsatishimizda ham ulkan egzulik, savob borligi ta'kidlanadi.

Jizzax viloyati musiqali drama teatri jamoasi tomonidan viloyat Oila va xotin-qizlar, Ichki ishlar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi bilan hamkorlikda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar uchun ikki haftalik bepul spektakllar namoyishining yo'lga qo'yilishi bayram oldidan chinakam ma'naviy tuhfa bo'ldi.

16-avgustdan 30-avgustga qadar davom etadigan bu ezgu tashabbusning yana bir muhim jihati, xotin-qizlar o'rtasida ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, ularning ma'naviy-madaniy zavq olishiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shishda.

Loyihaning ilk kuni teatr jamoasi Paxtakor tumanida tomoshabinlarga "Tanho yulduz" spektaklini havola etdi.

— Spektakllar 12 ta tumandagi madaniyat markazlarida, shaharda esa teatr binosida namoyish etiladi, — deydi teatr rahbari G'ulom Darxonov. — Avval ham mana shunday loyihani nuroniylar

bilan, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi kasaba uyushmalari xodimlari bilan birga amalga oshirib, butun viloyat bo'ylab spektakllar namoyish etgandik. Bu yilning hisobidan mazkur loyiha ikkinchi marta amalga oshirilyapti. Mablag'lar tumanlardagi Oila va xotin-qizlar bo'limlari tomonidan qoplab beriladi.

Namoyish etilishi mo'ljallangan spektakllar qatorida teatr bosh rejissyori Shohruh Yo'ldoshev sahnalashtirgan Turob To'la asari — "Nodirabegim" spektakli alohida o'rtn tutadi.

— XV asr oxiri va XIX asming burchto yarmida yashab ijod etgan o'zbek mintoz adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Nodirabegimning murakkab hayotiga bag'ishlangan mazkur asarda asosan, Qo'qon xonligi taxtiga o'tirgan 14 yoshli Muhammad Alixon davri xususida so'z boradi.

— Nodirabegim shoira bo'lish bilan birga, avvalo, ona. Shuningdek, o'zbek davlatchiligi boshqaruvida davlat arbobi sifatida gavdalanadi. Tomoshabinning oilaga, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini yanada junbushga keltiradi, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan



artist Abduraim Lapasov. — Bu spektaklda men Hojdarg'a obrazini ijro etdim. U vatanparvar, adolatl iinson siymosida gavdalanadi. Asarda o'tmishimizdagi erksizlik tufayli taxt talashlar qurboniga

aylangan mazlum xalq va o'zaro ishonchsizlik, xiyonat va razolatdan jabr ko'rgan buyuk shoiramizning iztiroblarga to'la mashaqqatli hayoti tarixiy faktlar asosida badiiy ifoda etilgan.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar i tahririyati” DUK

МУАССИС:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl i chоп etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846.
43690 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15